

UY VAZIFASINI BAJARUVCHI BOLALAR TOYIFASI

Jizzax viloyati Zafarobod tumani

8-DMTT bolalarni bir yillik boshlang‘ich ta’limga

bepul tayyorlov guruh tarbiyachisi

Xolmatova Muattar Tursuqulovna

Anotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning ta’lim jarayoni mustahkamlovchi uy vazifalarni bajaruvchi bolalar toifasi haqida tushunchaga eta bo’lish.

Аннотация: В данной статье получить представление о категории детей, выполняющих домашнее задание, что укрепляет образовательный процесс детей дошкольного возраста.

Kalit so’zlari: jismoniy tarbiya, chidamlilik, iroda, etibor, tashabbus, tajriba.

Bolalar uy vazifasini bajarayotganda o`zgacha yondoshib, fe`l-atvoridan kelib chiqqan holda o`ziga xos munosabatda bo`ladi. Shuning uchun ham uy vazifasini bajarishni istamaslik hissini yo`qotish uchun har bir bolaga alohida o`zgacha e`tibor qaratish shart

Birinchi sinfga borishdan avval bolalar bog`chalarga yoki tayyorlov guruhlariga borishadi va u yerda kerakli uy vazifasi beriladi. Har bir ota-onan o`z erkatoyini bu vazifani bajarishga undash muammosiga duch kelgan bo`lsa kerak. Bola goho uy vazifani bajarmaslikka bahona topadi, goh keying qoldiradi, goh esa bajarishga va`da beradi-yu, va`dasini bajarishga shoshilmaydi. Har kuni uchraydigan bunday ko`ngilsizlikning oldini qanday olsa bo`ladi? Avvalambor, farzandingizning fe`l-atvori qaysi toifaga mansubligini aniqlab shunga ko`ra harakat qilish kerak.

Pala-partish, rejasiz bola

Bunday bolalar barcha narsaga ulgurishga harakat qilishadi va har doim qayergadir – goho do`stiga yordam berishga, goho futbol o`ynashga, goho multfilmlari kolleksiyasini saralashga doimo shoshishadi. Uxlash payti kelib, uy

vazifasi qilinmaganida esa, bolaning «Ulgura olmadim!» degan bahonasi doimo tayyor.

Nima qilish kerak?

Bolaga birinchi o'rinda uy vazifasini bajarish shart, qolgan ishlar keyin bo'laveradi, degan shartni qo`ying. Bolalar bog`chasi yoki maktabgacha ta`lim o`quv kurslaridan so`ng o`z ishlarini qilib olishiga ikki soat vaqt belgilab, kerakli soatda yozuv stolida o`tirishini uqtiring.

O`ylab ko`ringchi, ehtimol bola uy vazifasini bajaradigan sharoitni o`zgartirish kerakdir? Hamma bolalar ham uy ishini bajarayotganda tinchlikni qabul qila olmaydi. Ayrim bolalar darslarini mehmonxona yoki oshxonada tashqi shovqin – ota-onasining ovozi, idish-tovoqlarning jarangi yoki gazetalarning shitir-shitirini eshitgan holda tayyorlashadi.

Injiq bola

Bunday bola har doim kimningdir ustidan doimo shikoyat qiladi: goho bolalar bog`chasidagi mashg`ulotlari zerikarli bo`lishi yoqmaydi, uningcha, bog`cha opasi qattiqko`l, guruhdoshlari mijg`ov, unga hech narsa qiziq emas. Uning bunday injiqligi kechgacha davom etib, uy vazifasi esa bajarilmay qolaveradi.

Nima qilish kerak?

Bola bilan avval uy vazifasini bajarishi, so`ng uning gaplarini eshitib birga mulohaza almashishingiz haqida kelishib oling. Agar u uy vazifasini bajarishidan avval yana shikoyatlarini boshlasa, u belgilangan tartibni buzayotganligini eslating. Uy vazifasini bajarib bo`lgach, fikrini gapirishga qo`yib bering.

Bolaning shikoyatini shunchaki o`tkazib yubormang. Balki uning bog`chasida haqiqatan ham muammo yuzaga kelib, tarbiyachisi bilan suhbatlashish kerakdir? Yoki, tarbiyalanuvchi o`quv materialini tushunmay unga yordam berish shartdir?...

Fikrini o`tkazuvchi bola

Avval u uy vazifasini qilishga shunchaki yordam berishingizni iltimos qiladi, keyin o`rniga rasm chizib berishingizni aytadi, chunki siz bolaga nisbatan tez va yaxshiroq bu harakatlarni bajarasiz-da! Farzandingiz uchun uning hamma uy vazifasini bajarib qo`yaningizni ham sezmay qolasiz.

Nima qilish kerak?

Bola uy vazifasini bajarishda mashaqqat ham chekmasligini anglab bo`lgan, axir siz u uchun barcha ishni tez hamda to`g`ri udalaysiz-da! Agar uy vazifasini bajarishda qiyinchiliklar yuzaga kelsa, u bilan birga vazifani bajarishingizni, biroq uning o`rniga ish qilmasligingizni tushuntirib qo`ying. Qiyin vaziyatda zarur bo`lganda yordam berishingizni, biroq harakatlarni birgalikda amalga oshirishingizni uqtiring.

Shoshqaloq bola

Bunday bolalar uy vazifasini bajarishni rad etishmaydi, ammo hammasini tez tugatib ko`chaga yoki o`yin o`ynashga shoshishadi. Ular masalani yechishda diqqatini yomon to`playdi, bosh qotirishni istashmaydi hamda bunga harakat ham qilmaydi. Natijada esa qing`ir-qiyshiq yozib, ishlarida bir qancha xatolarga yo`l qo`yadi.

Nima qilish kerak?

Bolaga uy vazifasini bajarayotganda tezlik hamda uni tugatish emas, ishning to`g`ri bajarilishi muhim ekanligini uqtiring. Yomon bajarilgan ishdan yaxshi natija va foyda bo`lmasligini tushuntiring. Farzandingizga vazifasini sifatli bajarmagunicha ko`chaga sayr qilish yoki o`ynagani chiqmasligini bildiring.

Shuningdek, uy vazifasini bajarishda uni ikki yoki uch qismga bo`lishingiz mumkin. Bola uy vazifasining birinchi qismini bajarib bo`lgach, unga biro z dam bering, ungacha esa u vazifani qay holatda bajarganligini tekshiring.

Mukammallikkha intilish

Bola bir vazifa ustida soatlab o`tirib, boshqa vazifalarni bajarishga kelganida esa vaqt qolmasligi mumkin. Vaziyat shuni taqazo qiladiki, bola faqat bir yo`nalishdagina muvafaqqiyatga erishadi.

Nima qilish kerak?

Farzandingizga barcha qilayotgan ishi a`lo bo`laverishi mumkin emasligini tushuntiring. U bilan barcha vazifalarga kerakli diqqat va vaqtini rejalashtirishiga kelishib oling. Amalga oshirgan xatolaridan foydali xulosa chiqarishi mumkinligini tushunishiga yordam bering: agar savolga noto`g`ri javob bergan bo`lsa, masalani

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yechishga yangi yechim qidirish dunyoqarashini kengaytiradi. Buni anglating!

Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirining 255-sonli buyrug'i. 2021yil 30- dekabr.
2. Sh. A. Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur chashmalari" T.: 2013 y.
3. N. M. Kayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T.: 2013 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
2. Sh.M. Mirziyoev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102b.
3. Sh.M. Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
4. Sh. M. Mirziyoev 7 fevral 2017 yil kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmoni.
5. Sh.M. Mirziyoevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr.
6. Xasanboyeva O. Pedagogika tarixidan xrestomatiy. T.: "O'qituvchi", 2003 y.
7. Pedagogika. A. Munavvarov tahriri ostida. T.: O'qituvchi. 1997

Axborot manbaalari

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. Uz
5. tdpu-intranet. ped